
AHOLINI RO'YXATGA OLISH JARAYONIDA DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASH



Aholining “jinsi”, “yoshi” va “nikoh holati” demografik xususiyatlari turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va demografik masalalarni tushunishga yordam berish uchun ro'yxatga olish boshqa ma'lumotlarini tasniflash va ularni taqdim etishda muhim hisoblanadi. Jins va yoshga kelsak, bu ma'lumot ro'yxatga olish doirasida so'rov bilan qamrab olinadigan har bir shaxs bo'yicha ma'lumot yig'ilishi shart. Shundan kelib chiqqan holda, bunday ma'lumotlar tugallanmagan hollarda, “aniqlanmagan” javob variantini oldini olish maqsadida shartli yoki qo'shimcha belgilardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ro'yxatga olish milliy va submilliy darajalarda tug'ilishni baholashni samarali tarzda hisoblash uchun ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. Ro'yxatga olish doirasida tug'ilishni o'rganish aholining tabiiy harakati statistikasining ishonchli tizimiga ega bo'lmagan mamlakatlarda, uning ma'lumotlarini hisoblash uchun taqdim etish imkoniyati tufayli boshqa hollarda mumkin bo'lmagan aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarini ololmasligi uchun juda muhim hisoblanib, hatto tug'ilishni to'liq ro'yxatga olish tizimiga ega mamlakatlar ham, ba'zi bir savollarni (“tirik tug'ilgan bolalar” soni, “yashayotgan bolalar”, “nikohga kirish yoshi”) qo'shish foydali hisoblanadi. Negaki, registr ma'lumotlarida mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini aks ettirgan jadvallarni olish imkonini beradi.

Ro'yxatga olish doirasida har bir shaxsning jinsini ro'yxatdan o'tkazish kerak. Aholining jinsi, yoshi bilan birga, aholi sonining boshqa xususiyatlari bilan ko'pincha o'zaro tasniflangan ro'yxatga olish belgisidir. Shu bilan birga, ushbu uchun ajratilgan yacheyka iloji boricha to'liq va aniq to'ldirilishi juda muhimdir. Agar ma'lumot bo'lmasa, jinsi boshqa shaxs yoki uy ma'lumotlariga asoslangan holda aniqlanishi kerak.

Ro'yxatga olish varaqasida har bir shaxsning jinsi (erkak yoki ayol) ro'yxatga olinishi kerak. Aholi jinsi kesimida ma'lumotlarning taqsimlanishi gender statistikasini tuzishning asosiy talablaridan biridir. Ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlarga ko'ra, ro'yxatga olish jarayonida to'planishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar, masalan, ta'lim, bandlik holati, nikoh holati, migratsiya, nogironlik va uy-joy sharoitlari, odatda, jinsga qarab farq qilishi mumkin. Aholi jinsi yoshi bilan bir qatorda, ro'yxatga olish va boshqa tadqiqotlar doirasida shaxslar haqida yig'iladigan, shuningdek, boshqa ma'muriy hisoblar tizimida yuritiladigan va ushbu ko'rsatkichlarni boshqa ko'rsatkichlar bilan birlashtirishda aholining ko'pgina ijtimoiy, demografik xususiyatlarini tahlil qilishga asos yaratadi.

U.Mahmudov

Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi bosh mutaxassisi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-10-07 16:18:43